

2023- yil yanvar-dekabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



**XORAZM VILOYATI  
TASHQI SAVDO AYLANMASI**



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **871,7 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **84,4 mln. AQSH** dollariga yoki **10,7 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **871,7** +10,7 %

(2022- y.: **787,3**)



**Saldo**

2023- y.: - **278,3** (2022 y.: - 293,3)



### Eksport

2023- y.: **296,7** +20,1 %

(2022- y.: **247,0**)



Tovarlari: **285,2**



Xizmatlar: **11,5**



### Import

2023- y.: **575,0** +6,4 %

(2022- y.: **540,3**)



Tovarlari: **575,0**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **296,7** mln. AQSH dollariga (**20,1** % ga ko‘paydi) va import hajmi **575,0** mln. AQSH dollariga (**6,4** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-278,3** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

<p><b>Rossiya Federatsiyasi</b></p> <p>TSA – 189,4</p> <p>Eksport: 97,2 Import: 92,2</p> <p> 21,7 %</p>	<p><b>Braziliya</b></p> <p>TSA – 160,9</p> <p>Eksport : 0,0 Import : 160,9</p> <p> 18,5 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 111,5</p> <p>Eksport : 11,3 Import : 100,2</p> <p> 12,8 %</p>	<p><b>Pokiston</b></p> <p>TSA – 80,0</p> <p>Eksport : 79,7 Import : 0,3</p> <p> 9,2 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 59,6</p> <p>Eksport : 13,4 Import : 46,2</p> <p> 6,8 %</p>
<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 37,0</p> <p>Eksport : 0,5 Import : 36,5</p> <p> 4,2 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 29,3</p> <p>Eksport : 18,0 Import : 11,3</p> <p> 3,4 %</p>	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 25,6</p> <p>Eksport : 25,3 Import : 0,3</p> <p> 2,9 %</p>	<p><b>Belarus</b></p> <p>TSA – 22,3</p> <p>Eksport : 2,5 Import : 19,8</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Eron</b></p> <p>TSA – 22,3</p> <p>Eksport : 13,1 Import : 9,2</p> <p> 2,6 %</p>

Xorazm viloyati jahonning **121** mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**21,7** %), Braziliya (**18,5** %), XXR (**12,8** %), Pokiston (**9,2** %), Turkiya (**6,8** %), Germaniya (**4,2** %) va Qozog'istonda (**3,4** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, 2020- yilga nisbatan qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **6,2** foizga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)



**Pokiston – 79,4**



**Qirg'iz Respublikasi – 25,0**



**Tojikiston – 12,5**























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **6** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>113,9</b>	<b>156,6</b>	<b>189,4</b>
 <i>Eksport</i>	70,4	97,7	97,2
<i>Import</i>	43,5	58,9	92,2
<b>Braziliya</b>	<b>0,0</b>	<b>189,8</b>	<b>160,9</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	189,8	160,9
<b>XXR</b>	<b>121,1</b>	<b>106,2</b>	<b>111,5</b>
 <i>Eksport</i>	23,3	10,4	11,3
<i>Import</i>	97,8	95,8	100,2
<b>Pokiston</b>	<b>10,9</b>	<b>13,0</b>	<b>80,0</b>
 <i>Eksport</i>	10,0	12,7	79,7
<i>Import</i>	0,9	0,3	0,3
<b>Turkiya</b>	<b>100,6</b>	<b>110,3</b>	<b>59,6</b>
 <i>Eksport</i>	31,0	24,7	13,4
<i>Import</i>	69,6	85,3	46,2
<b>Germaniya</b>	<b>6,3</b>	<b>10,3</b>	<b>37,0</b>
 <i>Eksport</i>	0,8	1,6	0,5
<i>Import</i>	5,5	8,7	36,5
<b>Qozog'iston</b>	<b>30,2</b>	<b>52,0</b>	<b>29,3</b>
 <i>Eksport</i>	22,4	39,3	18,0
<i>Import</i>	7,8	12,7	11,3
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>36,7</b>	<b>31,0</b>	<b>25,6</b>
 <i>Eksport</i>	36,4	30,2	25,3
<i>Import</i>	0,3	0,8	0,3
<b>Belarus</b>	<b>3,1</b>	<b>10,4</b>	<b>22,4</b>
 <i>Eksport</i>	1,5	2,2	2,6
<i>Import</i>	1,6	8,2	19,8
<b>Eron</b>	<b>9,1</b>	<b>10,3</b>	<b>22,3</b>
 <i>Eksport</i>	4,9	3,5	13,1
<i>Import</i>	4,2	6,8	9,2

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Litva</b>	<b>4,6</b>	<b>13,4</b>	<b>20,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	1,7	1,1
	<i>Import</i>	4,2	11,7	19,2
	<b>Turkmaniston</b>	<b>11,6</b>	<b>11,8</b>	<b>14,0</b>
	<i>Eksport</i>	6,1	4,1	2,8
	<i>Import</i>	5,5	7,7	11,2
	<b>Hindiston</b>	<b>0,9</b>	<b>12,7</b>	<b>13,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,3	0,4	1,6
	<i>Import</i>	0,6	12,3	11,8
	<b>Tojikiston</b>	<b>4,2</b>	<b>5,0</b>	<b>12,6</b>
	<i>Eksport</i>	3,6	4,8	12,6
	<i>Import</i>	0,6	0,2	0,0
	<b>Shveysariya</b>	<b>0,4</b>	<b>3,0</b>	<b>8,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,4	3,0	8,4
	<b>Polsha</b>	<b>3,6</b>	<b>8,1</b>	<b>7,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	1,2	1,9
	<i>Import</i>	2,9	6,9	5,8
	<b>Yaponiya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,4</b>	<b>6,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,4	6,3
	<b>Finlyandiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,0</b>	<b>5,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	5,8
	<b>BAA</b>	<b>1,2</b>	<b>0,6</b>	<b>4,3</b>
	<i>Eksport</i>	1,2	0,3	0,3
	<i>Import</i>	0,0	0,3	4,0
	<b>Belgiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,9</b>	<b>4,0</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,7	4,0



## XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr)\*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>871,7</b>	<b>110,7</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	180,1	119,0	20,7
Xiva sh.	31,6	106,3	3,6
Bog'ot	48,0	120,6	5,5
Gurlan	32,6	157,6	3,7
Qo'shko'pir	31,2	2,1 m.	3,6
Urganch	57,0	114,8	6,5
Hazorasp	53,2	148,6	6,1
Tuproqqal'a	206,0	96,0	23,6
Xonqa	56,5	106,0	6,5
Xiva	26,6	93,1	3,0
Shovot	60,1	95,6	6,9
Yangiariq	47,8	67,9	5,5
Yangibozor	39,5	2,5 m.	4,5

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a

206,0

Urganch sh.

180,1

Shovot

60,1

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Xiva

26,6

Qo'shko'pir

31,2

Xiva sh.


31,6

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **23,6** % ulush bilan **206,0** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **3,0** % ulush bilan **26,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **34,2** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.









Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **11,3** %ga oshdi va jami TSA'dagi ulushi **65,8** % ni tashkil etdi.



Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, **268,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **150,6** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **117,9** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)


<p><b>Rossiya Federatsiyasi</b></p> <p>TSA – 189,4 Eksport – 97,2 Import – 92,2</p> 	<p><b>Tojikiston</b></p> <p>TSA – 12,6 Eksport – 12,6 Import – 0,0</p> 
<p><b>Qozog'iston</b></p> <p>TSA – 29,3 Eksport – 18,0 Import – 11,3</p> 	<p><b>Moldova Respublikasi</b></p> <p>TSA – 2,7 Eksport – 2,7 Import – 0,0</p> 
<p><b>Qirg'iz Respublikasi</b></p> <p>TSA – 25,6 Eksport – 25,3 Import – 0,3</p> 	<p><b>Ukraina</b></p> <p>TSA – 1,3 Eksport – 0,3 Import – 1,0</p> 
<p><b>Belarus</b></p> <p>TSA – 22,4 Eksport – 2,6 Import – 19,8</p> 	<p><b>Ozərbayjon</b></p> <p>TSA – 1,0 Eksport – 1,0 Import – 0,0</p> 
<p><b>Turkmaniston</b></p> <p>TSA – 14,0 Eksport – 2,8 Import – 11,2</p> 	<p><b>Armaniston</b></p> <p>TSA – 0,05 Eksport – 0,05 Import – 0,0</p> 




Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya (**63,5** %), Qozog'iston (**9,8** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**8,6** %) davlatlari bilan qayd etildi.

## XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **298,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **162,5** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **135,9** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **184** taga yetdi va ular tomonidan **296,7** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **20,1** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>247,0</b>	<b>296,7</b>	<b>106,8</b>	<b>120,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	79,2	137,0	113,4	173,0	32,1	46,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	2,7	-	-	0,0	0,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,1	5,2	57,3	85,1	2,5	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,1	3,2	3,9 m.	62,1	2,1	1,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	-	19,1 m.	-	0,5	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,9	1,9	79,9	2,1 m.	0,4	0,7
Sanoat tovarlari	106,9	104,9	94,0	98,2	43,3	35,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	0,4	55,7	2,0 m.	0,1	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	30,9	30,0	2,0 m.	96,8	12,5	10,1
Xizmatlar	16,4	11,5	87,4	70,2	6,6	3,9

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **96,1 %**ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**46,2%**), sanoat tovarlari (**35,4 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**10,1 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	124437,0	164,3
Don mahsulotlari	11913,1	13,9 m.
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	249,7	36,2
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	185,9	15,6
Turli xil ovqatlar va preparatlar	166,9	30,2
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	166,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	6,7	7,1
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	2650,2	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,5	-
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	3572,3	72,1
Hayvonot va o'simlik xom ashyosi	1164,7	4,2 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	311,7	39,0
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	122,9	15,0 m.
Po'kak va yog'och mahsulotlari	1,9	4,7
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3163,6	62,1
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyoviy moddalar	640,6	15,9 m.
Bo'yoqlar va taninlar	481,2	116,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	221,0	3,2 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	165,0	139,6
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	161,6	128,5
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	143,4	95,2
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	116,8	5,1 m.
Organik kimyoviy vositalar	3,0	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	92425,3	99,0
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	11448,9	172,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	777,0	29,1
Boshqa metall buyumlar	208,5	5,0
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,2	72,2
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	8,5	37,7
Rangli metallar	4,7	-
Rezina buyumlar	2,6	3,7 m.
Quyva temir va po'lat	2,3	194,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	157,0	2,9 m.
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	148,0	2,6 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	63,9	-
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	35,9	38,5 m.
Avtomobililar va ularning ehtiyot qismlari	25,7	24,4
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	6,2	-
Boshqa transport vositalari	2,5	-
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	1,3	-
Metallni qayta ishlash uskunolari	0,0	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim va kiyim aksessuarlari	24204,9	89,5
Oyoq kiyimlari	3681,1	3,1 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	910,9	4,1 m.
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	548,9	44,4
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	413,8	39,3
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	154,2	74,9
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	28,0	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunolari va optik mahsulotlar	9,3	37,6 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlarga **162,5** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **54,8** %ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **87,1** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, % da)





## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-dekabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Min. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	97,8	97,2	138,9	99,4	1	1
Pokiston	12,7	79,7	126,9	6,3 m.	5	2
Qirg'iziston	30,2	25,3	83,0	83,7	3	3
Qozog'iston	39,3	18,0	175,2	45,8	2	4
Turkiya	24,7	13,4	79,6	54,4	4	5
Eron	3,5	13,1	71,3	3,7 m.	9	6
Tojikiston	4,8	12,5	131,5	2,6 m.	7	7
Xitoy	10,5	11,3	44,9	107,7	6	8
Turkmaniston	4,1	2,8	66,8	67,9	8	9
Moldova Respublikasi	0,3	2,7	67,8	9,5 m.	27	10
Belarus	2,2	2,5	147,9	115,3	10	11
Iroq	0,5	2,4	38,9	5,2 m.	23	12
Afg'oniston	1,8	2,0	105,8	107,3	11	13
Polsha	1,2	1,9	169,7	153,4	16	14
Hindiston	0,4	1,6	153,2	3,7 m.	24	15
Vyetnam	1,7	1,3	78,1	79,6	14	16
Litva	1,7	1,1	4,5 m.	67,4	13	17
Ozarbajjon	0,8	1,0	59,5	128,1	19	18
AQSH	0,6	1,0	24,5	169,2	21	19
Misr	0,0	0,8	0,1	-	72	20





## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr)\*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>296,7</b>	<b>120,1</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	29,9	99,2	10,1
Xiva sh.	14,3	104,6	4,8
Bog'ot	23,4	69,0	7,9
Gurlan	23,7	2,4 m.	8,0
Qo'shko'pir	8,4	127,9	2,8
Urganch	25,6	113,1	8,6
Hazorasp	27,9	157,2	9,4
Tuproqqal'a	15,9	178,5	5,4
Xonqa	34,8	126,0	11,7
Xiva	14,3	66,3	4,8
Shovot	28,8	109,1	9,7
Yangiariq	20,5	135,9	6,9
Yangibozor	27,6	2,1 m.	9,3

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollari



Xonqa

34,8

Urganch sh.

29,9

Shovot

28,8

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollari



Qo'shko'pir

8,4

Xiva

14,3

Xiva sh.

14,3

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani **11,7** % bilan **34,8** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **2,8** % bilan **8,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida **112,8** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,5** foizga yoki **20,7** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**56,9** %), Rossiya (**30,6** %), Qozog'iston (**7,3** %) hamda Eron (**1,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **122,7 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **60,4** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **41,3** % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr)





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	12572,2	69736,3	56,9
 Rossiya Federatsiyasi	55954,4	37501,9	30,6
 Qozog'iston	38126,3	8910,9	7,3
 Eron	1327,6	2029,2	1,7
 Afg'oniston	709,9	1416,0	1,2
 Polsha	1116,6	1150,4	0,9
 Turkmaniston	1301,1	473,9	0,4
 Turkiya	218,5	368,5	0,3
 BAA	147,1	319,9	0,3
 Ukraina	370,3	251,0	0,2
 Boshqa davlatlar	922,1	501,0	0,4

\* qiymat ifodasidan




2023- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **56,9** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **86,0** foizga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **11,5** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **3,9** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **29,8** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**43,3** %), moliyaviy xizmatlar (**23,2** %), transport (**18,1** %) telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**15,4** %) hissasiga to'g'ri kelgan.

## XORAZM VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi **575,0** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,4** % ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**40,9** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**35,2** %) hamda sanoat tovarlari (**7,1** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **34,7** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **575,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>498,9</b>	<b>524,3</b>	<b>192,8</b>	<b>105,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	203,6	202,7	10,0 m.	99,5	37,7	35,2
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	182,6	161,5	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	36,9	39,3	132,3	106,4	6,8	6,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,2	12,0	3,3 m.	130,5	1,7	2,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,7	3,0	118,4	82,3	0,7	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	25,2	25,1	135,6	99,4	4,7	4,4
Sanoat tovarlari	36,2	41,0	169,5	113,2	6,7	7,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	201,4	235,0	173,4	116,7	37,3	40,9
Turli xil tayyor buyumlar	23,9	16,7	31,6	69,9	4,4	2,9



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	183241,1	96,5
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	7279,1	192,9
Don va ularning mahsulotlari	5201,9	4,2 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	4234,2	89,2
Sabzavotlar va mevalar	1033,5	2,8 m.
Tirik hayvonlar	814,3	48,1
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	631,1	115,2
Har xil ovqatlar va preparatlar	247,3	21,2
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	205,8	161,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Yog'och mahsulotlari	35411,4	110,1
To'qimachilik tolalari	3096,7	2,0 m.
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	445,5	16,0
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	152,8	-
Tabiiy kauchuk	129,3	80,2
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	36,4	14,6
Qog'oz xamiri va makulatura	7,6	-
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	2,2
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11250,8	142,9
Ko'mir, koks va briketlar	779,4	58,0
<b>Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari	3047,5	82,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	10709,4	131,2
O'g'itlar	4303,3	49,5
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2552,0	166,5
Bo'yoqlar va taninlar	2124,5	94,6
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1589,2	107,7
Noorganik kimyoviy moddalar	1268,3	90,4
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	1132,5	2,0 m.
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	991,9	135,6


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Quyma temir va po'lat	16343,4	198,5
Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	8301,5	176,7
Metall buyumlar	4606,6	43,2
To'qimachilik iplari, matolar	4267,3	105,4
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	4058,7	82,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	1978,7	75,0
Rezina buyumlar	1307,0	154,8
Rangli metallar	130,8	3,0 m.
Teri, charm mahsulotlari va mo'ynalar	1,2	0,9
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	141140,2	122,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	33714,0	120,8
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	26414,5	152,4
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	20796,0	121,1
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	10253,0	50,0
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	1266,3	84,4
Metallni qayta ishlash mashinalari	744,1	57,9
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	441,9	56,1
Boshqa transport vositalari	208,2	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	8193,5	45,1
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	5109,8	110,1
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	2447,8	5,1 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	783,2	185,8
Oyoq kiyimlari	122,5	111,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar	41,5	68,2
Kiyim va kiyim aksessuarlari	18,7	2,1 m.
Sayohat aksessuarlari va sumkalar	4,3	17,7



2023- yil yanvar-dekabr oylari natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi **23,6** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **48,3** %ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyati **53** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Belarus va Litva) jami importning **82,6** foizini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr, %da)





## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	189,8	160,9	-	84,8	1	1
XXR	95,8	100,3	97,9	104,7	2	2
Rossiya Federatsiyasi	58,9	92,2	135,2	156,6	4	3
Turkiya	85,7	46,2	123,2	54,0	3	4
Germaniya	8,7	36,5	157,3	4,2 m.	8	5
Belarus	8,2	19,8	5,0 m.	2,4 m.	9	6
Litva	11,7	19,2	2,8 m.	164,3	7	7
Hindiston	12,3	11,8	20,1 m.	96,5	6	8
Qozog'iston	12,7	11,3	163,3	88,9	5	9
Turkmaniston	7,7	11,2	140,6	145,8	10	10
Eron	6,8	9,2	163,1	135,4	13	11
Shveytsariya	3,0	8,4	6,8 m.	2,8 m.	17	12
Yaponiya	0,4	6,3	4,5 m.	14,6 m.	27	13
Polsha	6,9	5,9	2,4 m.	85,2	12	14
Finlyandiya	0,0	5,8	0,1	-	57	15
BAA	0,3	4,0	-	16,1 m.	32	16
Belgiya	0,7	4,0	3,5 m.	5,6 m.	24	17
Koreya Respublikasi	3,5	3,8	17,6	108,7	16	18
Gongkong	0,9	2,5	2,0 m.	2,8 m.	21	19
Italiya	0,6	2,2	86,2	3,7 m.	25	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-dekabr)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>575,0</b>	<b>106,4</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	150,2	123,9	26,1
Xiva sh.	17,3	107,8	3,0
Bog'ot	24,6	4,1 m.	4,3
Gurlan	8,8	82,3	1,5
Qo'shko'pir	22,8	2,9 m.	4,0
Urganch	31,4	116,3	5,5
Hazorasp	25,4	140,1	4,4
Tuproqqal'a	190,1	92,4	33,1
Xonqa	21,7	84,5	3,8
Xiva	12,2	176,3	2,1
Shovot	31,3	85,7	5,4
Yangiariq	27,2	49,3	4,7
Yangibozor	12,0	3,7 m.	2,1

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollari



**Tuproqqal'a** 190,1

**Urganch sh.** 150,2

**Urganch** 31,4

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSH dollari



**Gurlan** 8,8

**Yangibozor** 12,0

**Xiva** 12,1

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **33,1** % bilan **190,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Gurlan tumani hissasiga **1,5** % bilan **8,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **235,0** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **16,7** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **40,9** %ga yetdi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-dekabr)




2023- yil yanvar-dekabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **33,6** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **88,1** mln. AQSH dollari (**37,5** %), Turkiya - **32,1** mln. AQSH dollari (**13,7** %) va Germaniya — **30,6** mln. AQSH dollari (**13,0** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi **41,0** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,2** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **7,1** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR


(2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)

**18,4 mln. AQSH doll,**  
**ulushi – 44,8 %**



**Rossiya  
Federatsiyasi**

**4,7 mln. AQSH doll,**  
**ulushi – 11,7 %**



**Xitoy Xalq  
Respublikasi**

**3,2 mln. AQSH doll,**  
**ulushi – 7,8 %**



**Turkiya**

**2,8 mln. AQSH doll,**  
**ulushi – 6,9**



**Belarus**


**2,7 mln. AQSH doll,**  
**ulushi – 6,6**



**Germaniya**



Sanoat mahsulotlari importi asosan quyma temir va po'lat (**16,3** mln. AQSH dollari), yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**8,3** mln. AQSH dollari), metall buyumlar (**4,6** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**4,3** mln. AQSH dollari) qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**4,1** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 62-224-65-09**